

QISHLOQ HUDUDLARDA KAMBAG'ALLIK VA BANDLIK O'RTASIDA BOG'LIQLIK

Xoliqov Sulaymon O'tkir ug'li

TDAU mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18538145>

Annotatsiya: Maqolada kambag'allik va daromadlar o'rtasidagi bog'liqlik hamda turli faoliyat kesimida o'rtacha oylik ish haqi tafovutlari tahlil qilingan. Ilmiy izlanishda ish haqi bo'yicha yuqori, o'rta va past daromad guruhlar mavjudligini ko'rsatdi. O'zbekistonda kambag'allik hududlar bo'yicha notekis taqsimlangani, ayniqsa qishloq joylari va kichik aholi punktlarida vaziyat og'irligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: kambag'allik, daromadlar, o'rtacha oylik ish haqi, mehnat bozori, qishloq bandligi, ishsizlik, kadrlar siyosati, monitoring va prognozlash, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy sheriklik, xizmatlar sektori.

Kambag'allik butun dunyoda iqtisodchilar nazarida darhol chora ko'rishni talab etadigan jiddiy va murakkab ijtimoiy muammo sifatida talqin qilinadi. Qishloq hududi asosan kambag'allik ko'p uchraydigan hudud deb qaralganini hisobga olsak, biz uchun ushbu masala eng dolzarb yo'nalishlardan biriligi asoslaydi.

Daromad darajasi bilan kambag'allik ko'rsatkichi o'rtasida uzviy bog'liqlik borligi shubhasizdir. Shu bois biz dunyoning turli mamlakatlarida aholining o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichlarini tahlil etdik. Bu ma'lumotlar davlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar ushlanmasidan oldin qayd etilgan jami daromad summasiga tayangan holda hisoblab chiqildi. Bu majburiy ushlanmalar 10,0–55,0 % pul miqdori hisoblanadi.

Reytingning 2025 yilgi ma'lumotlarida Shveysariya o'rtacha oylik 8111 dollar bilan birinchi o'rinni egallaydi, AQSh esa 6455 dollar bilan uchinchi pog'onada turadi. Yetakchi yigirmatalikka Kanada 5081 dollar bilan 7-o'rindan, Buyuk Britaniya 4179 dollar bilan 14-o'rindan, Germaniya 3984 dollar bilan 16-o'rindan va Fransiya 3655 dollar bilan 19-o'rindan kiradi. Keyingi qatlamda Italiya 2763 dollar bilan 26-o'rinda, Ispaniya 2551 dollar bilan 28-o'rinda, Yaponiya 2476 dollar bilan 29-o'rinda joylashgan. Pastroq daromadlar guruhida Xitoy 1122 dollar, Janubiy Afrika 1362 dollar ko'rsatadi, Qozog'iston 673 dollar, Meksika 648 dollar, Belarus 621 dollar va O'zbekiston 351 dollar bilan quyi o'rinlarda turadi. Eng past natija Zimbabveda 62 dollarni tashkil etgan.

Ko'rinadiki, turli davlatlarda aholi daromadlari keskin tafovut qiladi. O'zbekiston past daromadli mamlakatlar qatorida turgani, natijada ayniqsa qishloq hududlarida bu ko'rsatkich yanada kamroqligini hisobga olishimiz kerak. Chunki qishloq hududida aholi, ayniqsa qishloq ayollari qishloq xo'jaligida band bo'lganini hisobga olishimiz kerak.

1-jadval.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi

№	Iqtisodiy faoliyat turlari/yillar	2020	2021	2022	2023	2024
1	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 501 697,2	1 665 698,9	2 207 317,4	2 233 365,8	2 310 662,8

2	Ishlab chiqarish sanoati	2 365 583,2	2 797 265,1	3 469 593,0	4 022 382,2	4 536 832,3
3	Ulgurji va chakana savdo	1 452 797,1	1 679 306,5	2 014 891,9	2 397 654,5	2 925 383,6
4	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	888 300,9	1 203 001,9	1 533 459,7	1 952 939,1	2 321 382,4
5	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	1 358 083,3	1 796 621,0	10 067 540,5	12 635 073,7	14 412 173,7
6	Ta'lim	1 971 529,9	2 307 594,4	2 663 971,4	3 107 510,8	3 633 569,2
7	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 759 919,3	2 097 289,0	2 516 770,0	2 912 459,9	3 294 829,1
8	San'at, ko'ngilochar va dam olish	2 171 609,6	2 578 754,1	2 875 050,4	3 572 039,6	3 973 137,6
9	Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	1 786 505,6	2 222 973,0	2 762 435,1	3 562 707,6	4 304 964,0
	Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha ish haqi	1 695 114,0	2 038 722,7	3 345 669,9	4 044 014,8	4 634 770,5

Kambag'allik shaharliklarga qaraganda qishloq aholisi hayotiga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi va O'zbekistonda kambag'allik darajasi hududga qarab keskin farqlanadi, ayniqsa kichik qishloq punktlarida yashovchilar orasida ko'rsatkichlar balandroq.

2-jadval

Aholi o'rtasidagi kambag'allik darajasi

No	Hududlar/yillar	2020	2021	2022	2023	2024
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	24.1	20.8	19.9	13.6	10.8
2	Andijon viloyati	22.6	19.3	17.4	11.9	9.5
3	Buxoro viloyati	16.4	14.5	11.9	11.8	8.7
4	Jizzax viloyati	24.2	21.1	16.1	14.2	11.8
5	Qashqadaryo viloyati	20.7	17.9	12.7	11.5	9.6
6	Navoiy viloyati	4.4	4.7	9.2	7.6	5.7
7	Namangan viloyati	16.3	14.1	12.8	10.4	7.6
8	Samarqand viloyati	21.8	18.2	14.0	10.5	7.5

9	Surxondaryo viloyati	14.6	13.3	13.7	10.6	9.3
10	Sirdaryo viloyati	36.9	30.5	19.5	13.8	11.3
11	Toshkent viloyati	27.6	22.7	14.5	10.2	8.0
12	Farg'ona viloyati	2.3	3.9	11.6	10.1	8.6
13	Xorazm viloyati	22.6	19.9	19.1	14.1	11.9
14	Toshkent shahri	8.4	8.1	8.5	7.9	7.3
	Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich	19.7	17.0	14.1	11.0	8.9

Qishloq xo'jaligidan tashqari sohalarida daromad va ish topish imkonlari kamligi vaziyatni yanada keskinlashtirmoqda. Odatda qishloq oilalariga kredit olish qiyin bo'ladi, shuning uchun ular ko'p mablag' talab qilmaydigan kichik biznes turlarini ochishni tanlaydilar. Shu bois qishloq iqtisodiyotining barcha sohalarida ish o'rinlarini yaratish va bandlikni doimiy qo'llab-quvvatlash juda muhim:

- Qishloq iqtisodiyotini birgalikda rivojlantirish kerak: qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligidan tashqari sohalar va xizmatlar sektori [4].

- Qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlar uchun kerakli mutaxassislarni o'qitish, qayta o'qitish va malakasini oshirish.

- Qishloq mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozorini muntazam kuzatib borish, baholash va kelajakni prognoz qilish tizimini yaratish.

- Maktab o'quvchilari, yoshlar va ishsiz qishloq aholisi uchun kasb tanlash, ish topish va ishga kirishga rag'bat berish bo'yicha tizim tashkil etish.

- Ish beruvchilarni kasb-hunar ta'limi muassasalari bilan ko'proq hamkorlik qilishga undash.

- Kelgusi yil va keyingi ikki yil uchun mehnat resurslari yetarliligi va ehtiyojini oldindan hisoblab chiqish.

- Qishloq mehnat bozorida kerak bo'ladigan kasblar bo'yicha kadr tayyorlash uchun ta'limning uzluksiz bo'lishini ta'minlash.

- Qishloq munitsipalitetlarida yagona kadrlar bazasi va kadrlar bilan ishlash tizimini yo'lga qo'yish.

- Qishloq xo'jaligida yosh mutaxassislarni ushlab qolish va yangi yoshlarni jalb qilish.

Kambag'allikni kamaytirish va ish o'rinlarini ko'paytirish uchun qishloqlarda mehnat bozori ishlashi mumkin bo'lgan qulay sharoit, yo'l-transport, aloqa, kommunal va xizmat infratuzilmasi zarur. Eng avvalo, ishchi kuchiga ehtiyojni mavjud hamda kelajakdagi mehnat resurslari bilan moslashtirib, talab va taklif muvozanatini doimiy ushlab turish kerak. Bunda kadrlarni tayyorlash, ularni hududlar bo'yicha to'g'ri taqsimlash va resurslardan samarali foydalanishni boshqarish kuchaytirilishi kerak. Mavjud mutaxassislarni qishloqda ushlab qolish, yangi ishchi kuchini jalb etish uchun barcha darajalarda to'liq bandlikka qaratilgan chora hamda mexanizmlar paketi ishlab chiqilishi kerakligi aniqlandi. Yuqoridagilar amalga oshsa qishloq hududi rivojlanadi, bandlik va daromad oshadi, qishloq kambag'alligi keskin ravishda kamayadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdurakhmanova G. K., Qurbonov S. P. Gender xususiyatlari bo'yicha aholining unumli

- bandlik darajasini oshirish. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali ilmiy elektron jurnali, 2024, 2-son. DOI 10.5281/zenodo.13935999.
2. Abdullayev M. K., Begalova D. B. O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2021, 2-son.
3. Tashpulatov A. Mehnat bozorini samarali rivojlantirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanish imkoniyatlari. Kokand University Herald, 2023, 8-son. DOI 10.54613/ku.v8i8.798.
4. Amirjanova S S. Challenges and progress in addressing poverty levels in Uzbekistan. Frontline Marketing Management and Economics Journal, 2024. DOI 10.37547/marketing-fmmej-04-03-04.
5. ILOSTAT. Wages statistics va Earnings snapshots sahifalari.